

O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rahmonova Odinaxon Obiddin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlik davri haqida tushuncha, o‘smirlarning ta’lim-tarbiya berishda uchraydigan ayrim qiyinchiliklar va psixologik xususiyatlar taxlil qilindi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlar, ishonuvchanlik, ta’sirchanlik, analitik faoliyat, sintetik faoliyat, psixik taraqqiyot, dialektik qarama-qarshilik, o‘smirlik davri krizisi.

O‘qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o‘smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o‘tish davri ham deb ataymiz. O‘smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o‘z ichiga qamrab oladi, ya’ni 5-8 sinf o‘quvchilarini. O‘smir o‘quvchilarni ta’lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba’zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va yoshdagi maktab o‘quvchilariga qaraganda o‘smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o‘smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo‘lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o‘zgarishi, hamda hayot sharoitining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bu davrda o‘smirlarning o‘z shaxsiy fikrlari paydo bo‘ladi. Ularda o‘z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 15 – iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. «Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan» deb ta’kidlab o‘tdi.1

O‘smirlik davrida o‘quvchilarda analitik-sintetik faoliyat yetarlicha rivojlanmagani, fikr yuritish usullari to‘liq emasligi uchrab turadi. Shuning uchun geometrik masalani yechish usulini yoki isbotlash yo‘lini ko‘rsatib berilmasa, qiyinchiliklar tug‘iladi, o‘quvchilar masalani eng oddiy usulda «tavakkal» yecha boshlaydilar. O‘smirlar fikr yuritish faoliyatining xususiyatlaridan biri -yaqqol-obrazli, ko‘rsatmali tafakkur tarkibining muhim rol o‘ynashidir. Ularda mavhum tafakkur o‘sishi bilan yaqqol-obrazli tafakkurning tarkibiy qismi mutlaqo yo‘qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasi muhim rol o‘ynaydi. O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligiga tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchidan farqli o‘laroq, o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdegilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek, psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo‘yicha o‘smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug‘iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

O‘smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan P.I.Leventuev, D.B.Elkonin, T.V.Dragunovning ta’kidlashicha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. O‘smirlarning jismoniy o‘sishi va jinsiy

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

yetilishi ularning psixikasida keskin o’zgarishlarni vujudga keltiradi. O’quv fanlarning ko’payishi, axborotlar, ma’lumotlar tarmog’ining kengayishi ularning fikr yuritishini shakllantiradi.¹

¹<https://www.standart.uz/cyrl/news/view?id=963>

O’smir juda ko’p narsalarga; sport, turizm, kino-teatr, badiiy havaskorlik, pochta markalariniva qadimiy tangalarni yig’ish, o’simlik va hashoratlar kolleksiyasini to’plashga qiziqadi. Ko’p hollarda bu qiziqishlar ehtiros xarakteriga ega bo’ladi. Kun tartibi to’g’ri tashkil qilinsa, vaqt to’g’ri taqqoslansa, o’smir yaxshi o’qish, maktabdan tashqari xilma-xil ishlar bilan shug’ullanishi va o’yin-kulgu uchun yetarli vaqt topa olishi mumkin.

O’z-o’zini anglashning –bu o’zini o’zi tanish, sifat va kamchiliklarini, o’z qobiliyat va imkoniyatlarini bilib olish, o’z xatti-harakatlari haqida hisob berish ehtiyojidir. O’z-o’zini anglashning eng yuqori darajasi o’zining hayotdagi o’rmini aniq tasavvur qilish, o’zini shaxs sifatida anglab olishdir. Dastlabki paytlarda uning o’zi haqidagi fikrlari ko’p jihatdan boshqa kishilarning u xaqidagi fikrlaridan iborat bo’ladi «O’z xarakter hislatlaring xaqida sen qayerdan bilasan» degan savolga o’smirlar to’g’rilad to’g’ri ota-onalari o’qituvchilari, o’rtoqlaridan bilib olganlarini aytadilar, ammo keyinchalik buni o’zlari seza boshlaydilar. Lekin har qalay, o’zlaridan ko’ra boshqa kishilarni oldinroq baholay boshlaydilar.Ular o’z fikrlarini g’olib chiqishini hohlashadilar. O’smirlar boshqa kishilarni baholashda bazan shoshma-shosharlik qilib, qat’iy fikr yuritishga yo’l qo’yib qo’yadilar. Masalan: ular ko’pincha kishilarni faqat ayrim xatti - harakatlari va ayrim sifatlariga qarab baholaydilar. Bu bahoni esa butun bir shaxsga nisbatan tadbiiq qiladilar. Natijada kishining qadr-qiyamatiga uning ijobiy va salbiy sifatleri haqida ko’pincha noto’g’ri xulosa chiqaradilar. Ularning o’z-o’ziga baho berishi ham har doim xolis bo’lavermaydi. Masalan: ular o’rtoqlaring qo’polligi yoki pismiqligi to’g’risida gapiradilar-u, ammo buni o’zlarida sezmaydilar. Hamma o’smirlar ham o’z-o’zini tanqid qilish, o’z xatolarini vijdonan va ro’yi- rost bo’yniga olishni uddasidan chiqavermaydi.

O’smir atrofdegilarning unga bergan bahosiga nisbatan sezgir bo’ladi. Uning kayfiyatidagi ranjish, ikkilanishning sababi ana shunda. tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo’yishi, o’smirlarni o’ziga ortiqcha baho berishiga, o’ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoqlikka olib keladi. Xatto vaqtincha, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik o’smirda o’z kuchiga ishonmaslikna uyg’otish, ikkilanish, qo’rqoqlik, jur’atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborish mumkin.Shuning uchun ota-ona yoki o’qitvchi o’smirlar bilan bo’ladigan munosabatda alohida e’tiborli va nazokatli bo’lishi zarur. O’smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishning qo’rqish xavfi kuchayadi.U o’zining mustaqilligini ko’rsatish uchun, o’zinin nohaqligini tushunib tursa ham, ko’pincha qaysarlik va qo’pollik qilaveradi. Muomalada dag’allik, talabchanlik va xurmatsizlik o’quvchiga yosh bolalarga bo’lganday muomalada bo’lish ular yaxshi tushunaman deb hisoblagan misollar bo’yicha o’zlarining mustaqil fikrlarini aytish huquqini mensimaslik ularning yuqori natijalarga erishishdagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish kabi hodisalar, odatda o’smirda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy harakatlarni hosil qiladi.

J.Piajening ta’kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o’zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o’z-o’zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi.11-12 yoshdan boshlab o’smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi

Xulosa:Odatda, o’smirlarda bosh miya po’stining po’sti ostida qismlari ustidan kontrolligi ortib boradi po’st va po’st osti qismlari doimiy ravishda birga harakat qiladi. Ayrim xollarda po’stloq osti qismining faoliyatini nazorat qilmay qoladi. Bu o’smirning betayinligi, jizzakiligi va emotsional xislariga berilganligidan dalolat beradi. Tormozlash reaksiyasini paydo qilish xakteri turg’un bo’lmay qoladi. Qo’zg’alish jarayonlari ba’zan shu qadar kuchli bo’ladiki, o’smir yoqimsiz xarakterlarini tormozlay olmay o’zini tuta olmay qoladi.

Qo’zg’alish jarayonlari jo’shqin, lekin tez o’sadi. Ikkinchi tomondan o’smir kuchli hayajonlanish paytida ayniqsa tegishli ijtimoiy sabablari asosida hayajonlanganda o’z xatti-harakatlarini idora eta olmaydi. O’smirlik yoshida ikkinchi signal sitsemasining roli kuchaya boradi. Qo’zg’ovchi vazifasini bajaruvchi so’z bilish jarayonida boshqa kishilar bilan munosabatda bo’lishda va o’z xatti-harakatlariga baho berishda ko’proq rol o’ynay boshlaydi. Shu bilan bir qatorda o’smir nerv sitsemasining o’sishi hali tugallanmagan bo’lib, tarkib topish bosqichida bo’ladi. U uzoq vaqt davom etadigan kuchli qo’zg’aluvchiga bardosh bera olmaydi. Ba’zan shu sababli ancha tez qo’zg’alish holatiga o’tib ketadi. Bu esa o’smir nerv sistsemasining ma’lum darajada bo’shligidan

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

dalolat beradi. O‘smirning nerv sitsemasining tarkib topayotgan munosabatlari tarkibiy natijasida kuchayadi va mustahkamlanadi.

O‘smirlik yoshiga yetgan bolalarda burch va javobgarlik tuyg‘ulari yetarli darajada o‘sgan bo‘ladi. Bolalar o‘zlari ongli ravishda tanlagan qobil bo‘lib qoladi. Mana shu davrda kattalar bolalarga «bemalol ish topshirishni ishonadilar» o‘smirlarni oilada «kichkina» deb hisoblamay ulardan xo‘jalik ishlariga yordam berish topshirilgan ishga javob berishni talab qiladilar. Ular bilan maslahatlashadilar ba’zi o‘smirlar ayniqsa ular o‘rta maktab yoshining oxiriga borganda hatto o‘ziga yaqinlarini qo‘llovchi va tayanchi bo‘lib qoladilar.

QO‘LLANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003.
2. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.
3. F.Xaydarov. Umumiy psixologiya darslik.
4. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to‘plami. Toshkent. 2020
5. P.I.Ivanov. Umumiy psixologiya